


2020-yil yanvar-sentabr oylarida xizmatlar sohasining rivojlanishi

Hozirgi vaqtda xizmatlar sohasi rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida hal qiluvchi rol o'ynaydi. O'zbekistonda uchlamchi sektor, ba'zan xizmatlar sohasi shunday ataladi, mamlakat iqtisodiyotining jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi.


2020-yil 1-oktabr holatiga ko'ra 28 212 ta faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlardan, xizmatlar sohasida 17 083 ta korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatmoqda.

2020-yil 1-oktabr holatiga korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi, % da
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Xizmat ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlar umumiy sonining 12 339 ta korxonalar va tashkilotlar kichik biznes subyektlarini tashkil etadi. 2020-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, ularning ulushi 72,2 % ni tashkil etdi.

**2020-yil 1-oktabr holatiga xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan,
kichik tadbirkorlik subyektlarning ulushi, % da**
(fermer va dehqon xujaliklardan tashqari)



2020-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlar ulushi 42,5 % ni tashkil etdi.


Yaqin va uzoq xorij mamlakatlar bilan, shuningdek turizm sohasida o'zaro hamkorlikni rivojlantirish, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlar sonining o'sishiga ta'sir ko'rsatdi. Ularning ulushi 7,4 % ni tashkil etdi.

Tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning xizmat ko'rsatish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar umumiy sonidagi ulushi 5,4 % ni tashkil etdi. Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar

sohasida xizmat ko'rsatuvchi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi 3,9 % ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari sohasida xizmatlar ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi 1,9 % ni tashkil etdi.


2020-yil 1-oktabr holatiga xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, % da
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2020-yil yanvar-sentabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 7 233,7 mlrd. so'mga teng bo'lib, bu o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 102,7 % ni tashkil etdi.


Ko'rsatilgan bozor xizmatlarning tarkibida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanganda savdo xizmatlariga 32,5 %, transport xizmatlariga 22,3 %, moliyaviy xizmatlarga 16,0 %, aloqa va axborotlashtirish xizmatlariga 5,0 % da yuqori ulushlar ketma-ketligi kuzatildi.

2020-yil yanvar - sentabr oylarida ko'rsatilgan
bozor xizmatlari tarkibi, % da



2020-yil yanvar-sentabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi o'tgan yilga nisbatan 785,5 mlrd. so'mga oshdi. Joriy yilning oldingi (yanvar-avgust oylari) davriga nisbatan xizmatlar hajmi 1 041,7 mlrd. so'mga ko'paydi.

2020-yil yanvar-sentabr oylarida ayrim xizmat turlari
hajmining taqqoslanishi, mlrd. so'm



Joriy yilning oldingi (yanvar-avgust oylari) davriga nisbatan ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o'sishiga savdo xizmatlari 345,9 mlrd. so'mga, transport xizmatlari 283,3 mlrd. so'mga, moliyaviy xizmatlar 134,4 mlrd. so'mga hamda ta'lim sohasidagi xizmatlar 24,9 mlrd. so'mga oshishi asosiy omillardan biri hisoblanadi.


Ma'lumot uchun: 2019-yilning mos davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar – 275,4 mlrd. so'm, savdo xizmatlari – 223,1 mlrd. so'm, transport xizmatlari 178,3 mlrd. so'mga va ta'lim sohasidagi xizmatlar – 28,6 mlrd. so'mga oshgan.

**2020-yil yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari
bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari**

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Xizmatlar – jami	7 233,7	102,7
shu jumladan:		
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	362,8	110,9
moliyaviy xizmatlar	1 154,9	130,0
transport xizmatlari	1 613,0	106,0
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	1 566,3	105,0
yashash va ovqatlanish xizmatlari	197,5	91,3
savdo xizmatlari	2 350,6	96,4
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	193,5	89,8
ta'lim sohasidagi xizmatlar	210,1	100,0
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	90,3	94,6
ijara xizmatlari	186,5	94,0
kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	245,6	94,5
shaxsiy xizmatlar	239,7	92,9
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	97,2	68,5
boshqa xizmatlar	292,0	96,1

Eng yuqori o'sish sur'atlari moliyaviy xizmatlar 130,0 % da, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari 110,9 % da, transport xizmat 106,0 % ta'lim sohasidagi xizmatlari 100,0 % da, xizmat turlarida qayd etildi.


2020-yil yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %



Nisbatan pastroq o'sish sur'atlari me'morchilik, muhandislik izlanishlari sohasidagi xizmatlar 68,5 %, ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar 89,8 %, yashash va ovqatlanish xizmatlari 91,3 % va shaxsiy xizmatlar 92,9 % da kuzatildi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining uchdan bir qismiga yaqini savdo xizmatlarini tashkil etdi. 2020-yil yanvar-sentabr oylarida uning ulushi 32,5 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, eng yuqori ulushlarni transport xizmatlari 22,3 %, moliyaviy xizmatlar 16,0 % va aloqa va axborotlashtirish xizmatlari 5,0 % egallaydi.


**2020-yil yanvar-sentabr oylarida
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar tarkibi, % da**



2020-yil yanvar-sentabr oylarida savdo xizmatlari hajmi 2350,6 mlrd. so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmidagi ulushi 32,5 % ni tashkil etdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan savdo xizmatlarining hajmi 223,1 mlrd. so'mga oshdi.

2020-yil yanvar-sentabr oylarida savdo xizmatlari tarkibi, % da



Aholining daromadlari darajasining oshishi bilan iste'mol talabi va savdo aylanmasi o'smoqda.

2020-yil yanvar-sentabr oylarida chakana savdo (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) ning ulushi 86,5 % ni tashkil etadi.


Ulgurji savdo bo'yicha xizmatlarining (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) ulushi 8,9 % ga yetdi.



Avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar umumiy savdo xizmatlari hajmida 4,6 % ni egalladi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish fuqarolik jamiyatida va bozor iqtisodiyotida yuz beradigan jarayonlarga ijobiy ta'sir ko'rsatish uchun zarur.

Hayotning ko'pgina sohalarida AKT joriy etilishi va rivojlanishi jamiyat, hukumat va biznes bilan bog'liq ko'plab tashqi va ichki jarayonlarni soddalashtirish va tezlashtiradigan muhim element hisoblanadi.

**2020-yil yanvar-sentabr oylarida aloqa va axborotlashtirish
xizmatlarining tarkibi, % da**



-  Boshqa aloqa va axborotlashtirish xizmatlari
-  Telekommunikatsiya xizmatlari


2020-yil yanvar-sentabr oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining hajmi 362,8 mlrd. so'mni tashkil etdi. Oldingi (yanvar-avgust oylari) davriga nisbatan o'sishi 39,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) katta qismni egallab, uning ulushi 96,6 % ni tashkil etdi.

Bugungi kunda o'quv jarayonini sifatli va samaradorligini oshirishning muhim omili sifatida maktablarni zamonaviy avtomatlashtirilgan laboratoriya uskunalari, kompyuter texnikasi, darsliklar va yangi avlod darsliklari bilan ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Ushbu davrda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi 197,5 mlrd. so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning ulushi 2,7 % ga yetdi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi, % da



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar 93,7 % ulush bilan yetakchilik qilmoqda. Yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 6,3 % ga to'g'ri keladi.


Valyuta siyosatini erkinlashtirish, istiqbolli investitsiya loyihalarini kreditlash ko'lamini kengaytirish, shuningdek, moliyaviy tashkilotlar tomonidan innovatsion

xizmatlar ko'rsatish bo'yicha amalga oshirilgan islohotlar moliyaviy xizmatlar hajmini oshishiga ta'sir ko'rsatdi.

2020-yil yanvar-sentabr oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi 1154,9 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 130,0 % ni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlarning eng katta qismini pul-kredit sohasidagi vositachilik bo'yicha xizmatlar (92,3 %) tashkil etadi.

2020-yil yanvar-sentabr oylarida moliyaviy xizmatlarning tarkibi, % da




**2020-yil yanvar-sentabr oylarida hududlar bo'yicha
xizmatlar ishlab chiqarish hajmi**

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
Qashqadaryo viloyati	7 233,7	102,7
Qarshi sh.	3 575,6	104,2
Shahrisabz sh.	253,6	100,1
tumanlar:		
G'uzor	263,8	101,5
Dehqonobod	197,1	113,5
Qamashi	236,6	102,2
Qarshi	283,7	100,5
Koson	401,5	102,6
Kitob	357,3	101,6
Mirishkor	135,6	100,5
Muborak	245,6	106,0
Nishon	244,5	104,3
Kasbi	163,2	104,8
Chiroqchi	320,5	101,4
Shahrisabz	254,3	101,9
Yakkabog'	300,8	100,1

Hududlar o'rtasida eng katta hajm Qarshi shahri (3 575,6 mlrd. so'm), Koson (401,5 mlrd. so'm), Kitob (357,3 mlrd. so'm), Chiroqchi (320,8 mlrd.so'm) va Yakkabog' (300,8 mlrd. so'm) tumanlariga to'g'ri keladi.

Eng kam hajm Mirishkor (135,6 mlrd. so'm), Kasbi (163,2 mlrd. so'm) va Dehqonobod (197,1 mlrd. so'm) tumanlarida kuzatilmoqda.


2020-yil yanvar-sentabr oylarida hududlar bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, % da



Yuqori o'sish sur'atlari Dehqonobod (113,5 %), Muborak (106,0 %), Kasbi (104,8 %) va Nishon (104,3 %) tumanlarda kuzatildi.

Zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari milliy va mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda respublikaning har bir iqtisodiy salohiyati tuman va viloyatlarining barcha resurslaridan oqilona foydalanishiga bog'liqdir.

2020-yil yanvar-sentabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida hududlarning ulushi, % da



Hududlar o'rtasida xizmatlar umumiy hajmida eng katta ulushni Qarshi shahri (49,4 %), Koson (5,6 %), Kitob (4,9 %), Chiroqchi (4,4 %) va Yakkabog' (4,2 %), tumanlari egallaydi.

Hududlar o'rtasida eng kam ulush Mirishkor (1,9 %), Kasbi (2,3 %), Dehqonobod (2,7 %), va Qamashi (3,3 %) tumanlariga to'g'ri keladi.